

INTERNET XIZMATLARI BILAN ISHLASH

Umarov Bekzod Azizovich

Farg'ona davlat universiteti o'qtuvchisi, ubaumarov@mail.ru

Komilova Fotimaxon Tavakkaljon qizi

Farg'ona davlat universiteti 3-kurs talabasi,

Komilovafotimaxon@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada internet xizmatlari bilan ishlash haqida ma'lumotlar berilib o'tilgan. Internet xizmatlari bilan ishlash bo'yicha ularning maqsadi, turlari qulayliklari haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Bugungi kunda internet bizning hayotimizning bir qismiga aylanib bormoqda. Internet xizmatlari bizning faoliyatimizni yengillashtirayotganini hech kim inkor etolmaydi. Turli internet xizmatlari orqali ma'lumotlarni oson almashinishimiz mumkin. Masalan Web sahifalar shlyuzlar, gopher, telnet va boshqa ko'plab internet xizmatlari mavjud. Bundan tashqari bu maqola internet xizmatlari bilan ishlash tog'risida xulosa bilan yakunlangan.*

***Kalit so'zlar:** Internet, telnet, shlyuzlar, WEB sahifa, E-mail, electron pochta internet xizmatlari, gopher, html, wais, aloqa xizmati, ko'ngil ochar xizmatlar, bulutli xizmatlar, wiki, FTP.*

***Annotation:** This article provides information about working with Internet services. The purpose of working with Internet services, their types and conveniences are discussed in detail. Today, the internet is becoming an integral part of our lives. No one can deny that internet services make our activities easier. Through various internet services, we can easily exchange information. For example, there are web pages, gateways, gopher, telnet, and many other internet services. In addition, it ends with a conclusion about working with Internet services.*

Keywords: *Internet, telnet, gateways, website, e-mail, e-mail internet services, gopher, html, wais, communication service, entertainment services, cloud services, wiki, FTP*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о работе с интернет-сервисами. Подробно рассмотрены цели работы с интернет-сервисами, их виды и удобства. Сегодня интернет становится неотъемлемой частью нашей жизни. Никто не может отрицать, что интернет-сервисы облегчают нашу деятельность. С помощью различных интернет-услуг мы можем легко обмениваться информацией. Например, существуют веб-страницы, иллюзы, gopher, telnet и многие другие интернет-сервисы. Кроме того, она заканчивается выводом о работе с интернет-сервисами.*

Ключевые слова: *Интернет, телнет, иллюзы, веб-сайт, электронная почта, почтовые интернет-сервисы, gopher, html, wais, услуги связи, развлекательные услуги, облачные сервисы, ФТП, вики*

Introduction

Internet, avvalambor, uning foydalanuvchilariga axborot xizmati ko'rsatish uchun yaratilgandir. Umuman olganda, internet xizmat turlari nihoyatda ko'p va xilma-xil bo'lib (yangi xizmat turlari kun sayin paydo bo'lib, ba'zilari yo'qolmoqda), ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- WWW - elektron sahifa xizmati;
- elektron pochta xizmati;
- telekonferensiya (Usenet);
- fayllarni uzatish (FTP);
- DNS- tarmoq hududlariga nom berish xizmati;
- Telnet xizmati;
- IRC - xizmati yoki Chat konferensiya;

Ma'lumotlarni izlash xizmati.

Telnet-Telnet shunday imkoniyatki, u orqali uzoqda joylashgan serverga kirish va buyruqlar kiritish mumkin. Bu xizmat turi orqali siz internetdagi axborotlardan ham foydalansangiz bo'ladi. Siz kompyuteringizda Telnetning mijoz dasturini ishga solasiz, Telnet sizning ekranigizda tezkor oyna hosil qiladi va shu tezkor oyna orqali host (mezbon) kompyuteriga buyruq yuborganingizda, ma'lumot host kompyuterdan olinib sizning ekranigizda paydo bo'ladi. Siz Telnetning mijoz dasturidan foydalanishingiz va operatsiyalar bajarishingiz uchun foydalanuvchi ismingiz va maxfiy kodingizni kiritishingiz zarur. Tajribali foydalanuvchilarning ko'pchiligi bu xizmatdan foydalanadi. Ba'zi serverlarga esa bu dasturdan foydalanish taqiqlangan.

FTP. (File Transfer Pratacol) bu fayllarni boshqalarga internet orqali yuborish imkoniyatidir. Fayllar FTP server deb nomlangan serverga joylanadi va browserlar FTP serveridan fayllarni yuborilishi kerak bo'lgan kompyuterlarga yuborishadi, ammo bu fayllar yuborilishining juda sekin usuli. Juda ko'p dastur yaratuvchi kompaniyalarning fayllarni FTP serverdan yuklab olib mahalliy kompyuteringizga tez va oson yuborish uchun dasturlari mavjud. Bu dasturlar ham fayllarni FTP serverga joylashtiradi. Bu dasturlar: WS_FTP va Cute FTP dasturlaridir.

Usenet (Usenet Wewsq roupe)-tarmoq yangiliklari va tarmoqdagi elektron elonlar doskasini olish. Bu sistema ma'lum bir mavzu bo'yicha guruhlariga bo'lingan hujjat (maqola)lar yigindisi sanaladi. Foydalanuvchi o'zini qiziqtirgan mavzuni ko'rsatib mos hujjatlar bilan tanishib chiqishi va o'zinikini yaratishi mumkin.

Yangi xujjatlar guruhining barcha a'zolariga yoki konkret avtorlarga yuborilishi mumkin.

Elektron pochta (E-mail) - eng ko'p tarqalgan internet xizmati bo'lib, istagan tarmoq abonentini pochta xabarlarini bilan o'zaro muloqotda bo'lib turishini taminlaydi. Elektron pochtaning harakterli xususiyatlari shuki, xabar adresatga bir necha minut davomida yetib boradi.

Bunda masofa xech qanday rol o'ynamaydi. Odatiy xatlar esa, oluvchiga bir necha kun hattoki, haftadan keyin yetib borishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan tarmoqdagi abonentlararo axborot almashuvi xizmatlaridan tashqari, internet ba'zi bir o'ziga xos xizmat turlarini ham taqdim qilishi mumkin, masalan:

Wiki texnologiyasi. - bu saytni jamoaviy rivojlantirish va uni ma'lumot (tarkib) bilan to'ldirish texnologiyasi. Vikilar o'z foydalanuvchilariga ma'lumotlarni tahrirlash, qo'shish yoki o'chirish, shu jumladan boshqa foydalanuvchilar tomonidan joylashtirilgan, yangi sahifalar yaratish va h.k. Wiki texnologiyasining eng yorqin namunasi Vikipediya. 2001 yil 15 yanvar uning tug'ulgan kuni deb hisoblanadi.

Elektron tarjimon-o'ziga yuborilgan matnni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilib beradi.

Bunda elektron tarjimonga murojaat etish elektron pochta orqali amalga oshiriladi.

Shlyuzlar-abonentga TCP/IP protokollari bilan ishlamaydigan tarmoqda xabarlarini jo ' natish imkonini beradi.

Ikkinchi darajali xizmatlarga, ayniqsa axborotlarni qidirish va tarmoq ma'lumotlar bazasi informasion zaxiralardan foydalanish sistemalariga quyidagilar kiradi:

Gopher-kalit so'z va jumlar bo'yicha axborotlarni topishga yordam beruvchi Internet tarmog'idagi eng ko'p tarqalgan axborot qidiruv vositasi. Copher-servirida axborotlarni ko'rib chiqish xuddi windows ilovasidagi menyu yoki fayl sistemasi katalogi (papka)ning «daraxti» kabi ko'rinishdagi menyu yordami bilan tashkil qilinadi. Yuqori darajali menyu yirik mavzu nomlaridan tashkil topgan, masalan: iqtisodiyot, madaniyat, medisina, sport va boshqalar.

Keyingi daraja menyulari tanlab olingan oldingi daraja menyu elementlarini bo'laklar (detallar) ajratadi. Daraxt bo'yicha pastga siljitishning oxirgi punkti hujjat hisoblanadi, xuddi katalog daraxtining oxirgi elementi (fayl) kabi.

Veb-brauzerlar.- bu Internetdagi axborot resurslarini olisli va taqdim etadigan dasturiy ta'minot turi. Axborot resursi matn, rasm, tovush, video yoki boshqa turdagi tarkib kabi bo'lishi mumkin. Oddiy qilib aytganda, biz veb-brauzerni Internetda veb-sahifalarni ko'rish uchun foydalanadigan dasturiy ta'minot turi deb ta'riflashimiz mumkin. Veb-brauzer larning ba'zi bir misollari:

- Google Chrome
- Safari
- Microsoft Internet Explorer
- Mozilla Firefox
- Opera

Chat-muloqot. Internet o'z foydalanuvchilariga onlayn tarzda dunyo bo'ylab odamlar bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi. MSN Messenger, Yahoo Messenger, ICQ, AOF va boshqa turli xil dasturlar internetda muloqot qilish uchun mavjud. Bu dasturlar internetda kim onlaynligi va yozishmalar yozishga yoki alohida suhbat qurishga imkoniyat yaratadi. Chat roomlar foydalanuvchilarga onlayn suhbatlar uyishtirish imkoniyatini beradi. Chat room bu boshqalar bilan muloqot o'rnatish bo'ladigan tarmoqdagi hudud. Siz internetda onlayn bo'lib turgan odamalarga klaviatura yordamida matn terib yuborasiz va mos ravishda ulardan xatlar qabul qilib olasiz, ba'zi chat roomlarda ovoz va videolar yordamida suhbat qurib ularni ko'rishingiz mumkin.

Internetda eng ommabop va bir me'yorda rivojlangan xizmat turlaridan biri **World Wide Web (WWW)**dir. U tadqiqot axborotlari almashuvi uchun ilgari o'ylab topilgan. Hozir esa, ko'pchilik odamlar kundalik hayotining bir qismiga aylanib qoldi. WWW-bu yer sharining istagan nuqtasida saqlanishi mumkin bo'lgan butunlay boshqa sayt yoki kompyuterdagi matnning xohlagan boshqa joyiga havola qilinadigan belgilash so'zlari (buyruqlari) o'rnatilgan global giper matn sistemasi. Giper matn g'oyasining mazmuni shundaki, tarmoqdagi informasion zaxiralarga gipermatn modelini yaratishdagi relyasion yondashishdan foydalanish va uni maksimal oddiy usul bilan bajarish. Bu g'oyani amalga oshirishda to'rtta asosiy vosita ishlab chiqilgan:

-HTML hujjatlarning gip ermatn belgilash tili.

-URL(Universal Resource Locator) manzillashning universal usuli.

-HTTP gipermatn axborotlari bilan almashish protokoli. (HTTP-Hyper Text Transfer Protocol).

-SSI (Common Getaway Interface) shlyuzlarining universal interfeysi.

Bu vositalar kitobning navbatdagi bo'limlarida ko'rib chiqiladi.

Barcha xizmatdagi foydalanuvchilarni qiziqtiradigan jihatalar tezkorlik; arzon global aloqa; muloqot va axborot almashuvidagi qulaylik; kira olinadigan dasturlar, ajoyib tarmoq zaxiralari va boshqalar. Ular global tarmoqni o'zlarining xususiy intellektual imkoniyatlariga qo'shimchadek qaraydilar.

Hozirgi vaqtda axborot asri boshlanajagi, unga bo'ladigan talab va talabgorlar sonining to'xtovsiz oshib borajagini hamma anglamoqda. Tabiiyki, ishonchli va operativ axborotsiz vaqt bilan baravar qadam tashlab bo'lmaydi, inson faoliyatining xohlagan soxasida qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun barchamiz har xil internet xizmatlaridan potensial foydalanuvchi bo'lib boramiz.

Internet xizmatlari quyidagi turlarga bo'linadi:

Aloqa xizmatlari: elektron pochta, messenjerlar (Telegram, WhatsApp), videoqo'ng'iroqlar.

Ko'ngilochar xizmatlar: musiqiy (Spotify, YouTube Music), video (Netflix, YouTube), o'yin platformalari (Steam, PlayStation Network).

Ma'lumotlar xizmatlari: qidiruv tizimlari (Google, Bing), ma'lumotlar bazalari (Wikipedia).

Bulutli xizmatlar: fayl saqlash (Google Drive, Dropbox), virtual ofis xizmatlari (Microsoft Office 365).

Internet Xizmatlaridan Foydalanishning Asosiy Qoidalari:

1. Xavfsizlikka E'tibor Qaratish.

Internet xizmatlaridan foydalanishda ma'lumotlaringizni himoya qilish muhimdir. Quyidagi tavsiyalarni yodda saqlang:

Kuchli parol yarating va uni muntazam yangilang.

Faollashtirilgan ikki bosqichli autentifikatsiyani (2FA) qo‘llang.

Shubhali havolalarni ochmang va noma'lum manbalardan fayl yuklab olmang.

2. To‘g‘ri Xizmatni Tanlash.

Internet xizmatlari turli yo‘nalishlarga ega, shuning uchun ehtiyojlaringizga mosini tanlash muhim:

Ish jarayoni uchun Microsoft Teams yoki Slack kabi vositalar mos.

Ko'ngilochar maqsadlar uchun Spotify yoki Netflix yaxshi tanlovdir.

3. Xizmatlar Resurslaridan Samarali Foydalanish.

Internet xizmatlari vaqt va mablag‘ni tejashga yordam beradi:

Bulutli xizmatlarda fayllarni saqlash va ulashish orqali qog‘ozdan foydalanishni kamaytiring.

Ta'lim platformalaridan foydalanib, yangi bilimlarga ega bo‘ling (Coursera, Khan Academy).

4. Xizmatlar Narxi va Sifati.

Ko‘plab xizmatlar bepul taklif qilinsa-da, premium versiyalar qo‘shimcha imkoniyatlar beradi. Harajatlarni tejash uchun obunani ehtiyojlaringizga qarab tanlang.

Natija

Internet xizmatlari zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanib, turli sohalarda samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Ular orqali tezkor aloqa qilish, kerakli ma'lumotlarni qidirish, ko'ngilochar va ta'lim platformalaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Bulutli texnologiyalar vaqt va resurslarni tejashda, virtual muloqot vositalari esa masofaviy ishlash va o‘qish jarayonini yengillashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Biroq, xavfsizlik choralari rioya qilish internet xizmatlaridan samarali foydalanishning muhim shartidir. To‘g‘ri foydalanilganda, internet xizmatlari hayot sifatini oshirish, bilim olish va global muloqotni kuchaytirishda bebaho vositadir.

Xulosa

Internet xizmatlari zamonaviy dunyoda kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Ular aloqa, axborot izlash, ko'ngilochar faoliyat, ta'lim va ish jarayonlarini tezkor va qulay tarzda tashkil qilish imkonini beradi. Elektron pochta, qidiruv tizimlari, veb-brauzerlar va chat platformalari kabi xizmatlar global muloqotni osonlashtiradi, bilim almashish va ma'lumot olishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumotlarni tez almashinishi uchun juda qulay hisoblanadi internet xizmatlari. Shuningdek, bulutli texnologiyalar va onlayn platformalar vaqt va resurslarni tejashda katta yordam beradi. Internetdan foydalanishda xavfsizlikka rioya qilish va xizmatlarni ehtiyojga qarab tanlash muhimdir. Shu sababli, internet xizmatlari inson faoliyatining har bir sohasida samaradorlikni oshiruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Anderson, T. (2008). *Theory and Practice of Online Education* (2nd ed) [ISBN 9781897425084](#)
- Anderson, T., & Dron, J. (2010). "Three generations of distance education pedagogy". *The International Review of Research in Open and Distance Learning*, 12(3), 80–97.
- Bates, T. (2005). *Technology, e-learning and distance education*: RoutledgeFalmer.
- Bender, Tisha. (2023) *Discussion-based online teaching to enhance student learning: Theory, practice and assessment* (Taylor & Francis).
- Betts, Kristen, et al. (2021) "Historical review of distance and online education from 1700s to 2021 in the United States: Instructional design and pivotal pedagogy in higher education." *Journal of Online Learning Research and Practice* 8.1 (2021) pp 3–55 [online](#).
- Caruth, Gail D., and Donald L. Caruth. "The impact of distance education on higher education: A case study of the United States." *Turkish Online Journal of Distance Education* 14.4 (2013): 121–131. [online](#)

- Clark, J. J. (1906). *"The Correspondence School--Its Relation to Technical Education and Some of Its Results"*. *Science*. 24 (611): 327–34. *Bibcode*:[1906Sci....24..327C](#). *doi*:[10.1126/science.24.611.327](#). *PMID* [17772791](#).
- Oliy o‘quv yurtlari uchun darsliklar: “Internet va uning imkoniyatlari” mavzusidagi qo‘llanmalar.
- Elektron resurslar: Wikipedia (<https://www.wikipedia.org>) – Wiki texnologiyalari haqida.